

“4K” TA’LIM TIZIMI SHAROITIDA BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARINI TANQIDIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH

Azimjanov Nazirbek

Turon international university

Gumanitar ta’lim va pedagogika kafedrası (PhD) v/b dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21972273>

Jamiyat rivojining yangi bosqichida boshlang’ich ta’lim oldida turgan muhim vazifa o’qitish tizimini ilg’or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirishdir. Bu vazifa esa, o’z navbatida o’qitishning an’anaviy tizimini modernizatsiyalash uchun o’quvchilarda kreativ salohiyatni shakllantirishni talab etadi.

Kalit so’zlar: Tanqidiy tafakkur, ijtimoiy fikrlash, hamkorlik, Muammo yechimi, moslashuvchanlik, kreativlik, faol o’qish, tashabbuskorlik.

Jahonda “4K” (tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, kooperatsiya) kompetensiyalarni shakllantirish boshlang’ich ta’lim sifatini oshirishning ustuvor yo’nalishi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kompetensiyalar ba’zan universal kompetentliklar, “moslashuvchan” yoki “yumshoq” ko’nikmalar (soft skills) deb nomlanib, metapredmetli tavsifga egadir. Jahon iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 2018-yilda o’tkazilgan forumi hisobotida kelajakda ish beruvchilar birinchi – “analitik va innovatsion fikrlash”, ikkinchi – “muammolarga yaxlit yechim topish”, uchinchi – “tanqidiy fikrlash va tahlil”, to’rtinchi – “faol o’qish va o’rganish strategiyalari”, beshinchi o’ringa “kreativlik, originallik, tashabbuskorlik” ko’nikmalarining shakllanganligiga alohida e’tibor qaratishi qiyosiy tahlil qilingan. Mazkur forumning 2022-yil uchun tahlilida esa, “kreativlik, tashabbuskorlik, originallik” uchinchi o’ringa ko’tarilganligini ko’rish mumkin.

Hozirgi vaqtda ko’plab pedagoglar rivojlantiruvchi, shu jumladan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalarini qo’llashga katta e’tibor qaratishmoqda. Pedagogik ensiklopedik lug’atda fikrlash “yangini izlash va kashf etishning bevosita nutq bilan ijtimoiy bog’liqlikka ega psixik jarayon, tahlil va umumlashtirish davomida borliqni bevosita va umumlashgan tarzda aks ettirish jarayoni. Fikrlash hissiy bilishdan amaliy faoliyatga qarab borish asosida yuzaga keladi”¹, deb izohlangan.

Shunisi aniq ma’lumki, zamonaviy insonning fikrlash jarayoni axborot bilan bevosita bog’liq: bosma, audivizual: “fikrlash kuch, tanlov, asoslar keltirishni talab etadi. Agar mazkur jarayon yetarlicha rivojlanmagan bo’lsa unda kishilar mustaqil fikrlashda qiyinchilik sezishadi. Ular dalillarning ishonchlilik darajasini baholay olmaydi.

¹ Педагогический энциклопедический словарь / Гл. ред. Б.М.Бим-Бад. – М.: Большая российская энциклопедия, 2003. – 528 с. – С.431.

Axborotlarni tanlab olish kishilarning istaklari, qiziqishlari, qadriyatga yo'nalganligi, yosh va gender xususiyatlari kabilar bilan bog'liqlikda amalga oshadi. Axborotga ijodiy yondashuv va uni baholashning muhim omillaridan biri fikrning tanqidiyligi sanaladi. Tanqidiylik "tanlov vaziyatida harakatni amalga oshirish va muqobil qarorlar qabul qilish, noto'g'ri qarorlar chiqarishdan saqlanish ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadi"².

Tanqidiy fikrlash – axborotlarni o'zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o'ylash jarayonidir. Tanqidiy, ya'ni ongli, tahliliy fikrlovchi kishilar uchun axborotlarni oddiy tarzda tushunish, o'qitishning oxirgi bosqichi emas, balki uzatish nuqtasidir.

Tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan talaba u yoki bu g'oyalar bilan tanishadi, ularning keyinchalik amalga oshirilganda kelib chiqadigan oqibatlarini ko'ra biladi. Shu bilan birga u natijalarni unchalik ishonmasdan qabul qiladi va qarama-qarshi nuqtai nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun u yordam beruvchi mulohazalar tizimlarini tuzadi va shu asosda o'zining tutgan o'rnini aniqlaydi. Tanqidiy fikrlash – fikr va imkoniyatlarni murakkab, ijodiy yaxlit holga keltirish, axborot va konsepsiyalarning mohiyatini o'zgartirib, ularni qaytadan mushohada etishning jiddiy jarayonidir³. Bir so'z bilan aytganda, tanqidiy fikrlash bilish faoliyatining yuqori darajasidir.

Tanqidiy fikrlash retsept berilishi yoki unga qarab «yetti qadam» bosilishi bilan shakllanib qolmaydi. Tanqidiy fikrlash — o'rganish predmeti emas, balki o'rgatish natijasidir. Bu insonning fikrlashi uchun tayanch nuqtasidir. U esa o'rganuvchiga axborotni qattiq nazorat qilish imkonini beradi, shunday qilib talabalar axborotni o'zlashtirishlari, yig'ishlari, qaytadan tuzishlari, moslashtirishlari yoki e'tiborga olmasliklari mumkin. Bu hol o'quvchilar tomonidan: "Bu axborot men uchun qanday ahamiyatga ega?", "Men bu bilimlardan qanday foydalana olaman?", "Ushbu bilim men o'zlashtirgan bilimlar bilan qanday munosabatga kirishadi?", "Bu axborot foydalimi?", "Men bu fikrlarga qanday qarayman?", "Bu fikrlarning amalga oshirilishi menga va boshqalarga nisbatan qanday oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin?" degan savollar berilganda yuz beradi.

"Tanqidiy fikrlash" atamasidan pedagog muhitda bir necha o'n yillardan bo'yon foydalanib kelinadi va turli pedagoglar bu tushunchani har xil tushunadi.

² Столбникова Е.А. Развитие критического мышления студентов педагогического вуза в процессе медиаобразования (на материале рекламы). – Таганрог: Изд-во Кучма, 2006. – 160 с. – С.75.

³ Федоров А.В. Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза. – М.: Издательство МОО ВПП ЮНЕСКО «Информация для всех», 2007. – 616 с.



Ko'pchilik o'qituvchilar va metodistlar uchun tanqidiy fikrlash «yuqori tartibdagi» fikrlashni bildiradi, ya'ni o'rganish qobiliyatlarining so'nggi pog'onasida turadi. Falsafiy nuqtai nazardan tanqidiy fikrlash deganda, odatda, mantiqiy fikrlash va isbotlash ko'nikmalari tushuniladi. Uning yordamida talabalar diqqat bilan o'qish, chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o'z fikrlarini aniq va o'ylab ifoda etish imkonini oladilar. Adabiy ta'limga tatbiqan matnning tarkibiy qismlarini ajratishga va matnning kitobxon uchun ta'sir qilish usullarini tanqidiy qayta mushohada etishga hamda muallif asarni yaratishda amal qilgan sabablarni aniqlashda yordam beradigan matnga yondashish "tanqidiy" hisoblanadi. Bizningcha esa, "tanqidiy fikrlash" atamasiga to'liq ta'rif berishga intilish maqsadga muvofiq emas. Bu ro'yxat cheksiz, chunki u aslini olganda kishining butun zakovat imkoniyatlari ro'yxatidir.

D.Xalpern individning tanqidiy fikrlashi bilan aloqador qator sifatlarni ajratib ko'rsatadi. Mazkur sifatlarga quyidagilar kiradi: 1) rejalashtirishga tayyorlik; 2) egiluvchanlik; 3) qat'iylik; 4) o'z xatolarini to'g'rilashga tayyorlik; 5) shaxsiy mulohazalarini anglash va va tahlil qilish; 6) o'zaro kelishuvga asoslangan qarorlarni izlab topish⁴.

Amerikalik tadqiqotchi, professor D.Kluster tanqidiy fikrlashning quyidagi o'ziga xosliklarini ajratib ko'rsatgan:

- 1) tanqidiy fikrlar bu eng avvalo, mustaqil fikrlashdir;
- 2) axborot tanqidiy fikrlashning boshlanishi, lekin so'nggi nuqtasi emas;
- 3) tanqidiy fikrlash savollarning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi;
- 4) tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi;
- 5) tanqidiy fikrlash ijtimoiy fikrlashdir⁵.

Birinchidan, tanqidiy fikrlash – bu mustaqil fikrlashdir.

Mashg'ulot tanqidiy fikrlash tamoyillari bo'yicha yaratilar ekan, har bir ishtirokchi boshqalarnikidan mustasno holda o'zining g'oyasi, bahosi va ishonchiga ega bo'ladi. Hech kim biz uchun tanqidiy fikrlab bermaydi. Biz faqat o'zimiz uchungina bunday fikrlay olamiz. Demak, fikrlash yakka tartibli tavsifga ega bo'lganidagina, uni tanqidiy fikrlash deb atash mumkin. Talabalar o'z aqli, fikrlashi va eng murakkab savollarga ham o'zlari javob topish erkinligiga ega bo'lishi kerak. Qanday fikrlash zarurligini har bir talaba o'zi uchun o'zi hal qiladi. Shunday qilib, mustaqillik tanqidiy fikrlashning eng muhim jihatlaridan biridir.

⁴ Халперн Д. Психология критического мышления. – СПб., 2000. – 220 с. – С.56.

⁵ Темпл Ч., Мередит К., Стил Дж. Как учатся дети: Свод основ. – М.: Издательство Института «Открытое общество», 1997. – 105 с. – С.7-11.

Ikkinchidan, axborot tanqidiy fikrlashning natijasi emas, balki uning boshlanishidir. Bilim odamni tanqidiy fikrlashga undovchi motiv bo'lib hisoblanadi. Murakkab masalalarga yechim topish uchun zaruriy "xom ashyo" – dalillar, g'oyalar, matnlar, nazariyalar, ma'lumotlar, konsepsiyalarni qayta ishlash zarur.

Uchinchidan, tanqidiy fikrlash, savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi. Insoniyat o'z tabiatiga ko'ra qiziquvchandir. Biz biron-bir yangilikni sezar ekanmiz, albatta uning mohiyatini bilishni xohlaymiz. Qandaydir tarixiy obidani ko'rar ekanmiz, bizda uning ichkarisiga kirish istagi paydo bo'ladi.

To'rtinchidan, tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi. Tanqidiy fikrlovchi kishi muammoga o'zi shaxsiy yechim izlab topadi va bu qarorni oqilona, asosli dalillar bilan mustahkamlaydi. U boshqa qarorlar bo'lishi mumkinligini ham tan oladi, lekin o'zi tanlagan qaror boshqalarga nisbatan eng mantiqiy va oqilona ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

Beshinchidan, tanqidiy fikrlash – ijtimoiylik bilan bog'liq bo'lib, kundalik faoliyat uchun ham muhimlik kasb etadi. Har qanday fikr, agar u boshqalar bilan o'rtoqlashilgandagina o'tkirlashadi. Bahslashuvda, o'qiganimizda, muhokamada ishtirok etganimizda, e'tiroz bildirganimizda, boshqalar bilan fikr almashganimizda biz o'z nuqtai-nazarimizni aniqlashtiramiz va uni chuqurlashtiramiz. Shuning uchun ham tanqidiy fikrlash yo'nalishida ishlayotgan pedagoglar o'z mashg'ulotlarida juftlikda yoki guruhlarda ishlashning turli shakllaridan foydalanishga, bunda debat va munozaralardan samarali foydalanishga hamda talabalar yozma ishlarini namoyish qilishning turli ko'rinishlaridan foydalanishga intiladilar. Umuman olganda, har qanday tanqidiy fikrlovchi shaxs jamoa bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'ladi va faqat o'z imkoniyatlariga nisbatan anchagina keng ko'lamdagi vazifalarni hal qiladi.

Shuning uchun ham tanqidiy fikrlash yo'nalishida ishlaydigan o'qituvchi: vazminlik, boshqalarni eshitishga o'rganish, o'z fikriga javobgarlik kabi o'zaro samarali fikr almashish uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirishga ko'proq e'tibor beradi. Shunday qilib, bu o'qituvchilar o'quv jarayonini auditoriyadan tashqarida kechayotgan haqiqiy hayotga yaqinlashtirishga erishadilar.

Tanqidiy fikrlash yozma ishda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Yozuvda fikrlash jarayonini kuzatish mumkin bo'ladi va bu o'qituvchi uchun ham qulaylik yaratadi⁶. Yozayotgan talaba doimo faol bo'ladi. U doim mustaqil fikrlaydi va

⁶ Технология развития критического мышления в вузе: перспективы для школьного образования XXI века. – Н.Новгород: Арабеск, 2001. – 272 с.

bunda u o'zida mavjud bo'lgan barcha bilimlardan foydalanadi. U o'z fikrini mustahkamlash uchun yetarli darajadagi ishonchli dalillarni qatorlashtirib tashlaydi. Bundan tashqari u o'z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Chunki xat yozuvchi, uni o'qiydiganga mo'ljallab yozadi. Talaba uchun eng qimmatlisi – o'qituvchining uning ishiga qiziqishi va unga hurmat bilan qarashi, o'z fikrlari to'g'risida kursdoshlari, boshqa o'qituvchilar, ota-onalar va hatto notanish kishilar bilan o'rtoqlashish imkoniyatiga ega bo'lganligidir. Shuning uchun yozishni tanqidiy fikrlashning eng muhim vositasi deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. (23.09.2020) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020., 03/20/637/1313-сон.
- 2.Иноятлов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: дисс.докт.пед. наук : 13.00.01 / У.И.Иноятлов; Ташкент, 2003. – 236 с.
- 3.Мусурмонова О. “Таълим менежерининг касбий компетентлиги ва креативлиги” модулининг ўқув-услубий мажмуаси. – Т.: БИММ, 2015.– 288 б.
- 4.Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса // Перевод с английского под редакцией и с предисловием В.А. Звегинцева // Изд-во Московского университета, 1998. – 233 с.
5. Педагогический словарь / Под ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – М.: «Академия», 2008. – С.41.

